



## FARG'ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI


**Farg'ona viloyatida  
kichik tadbirkorlik**

**2021- yil yanvar-sentabr**


Dastlabki ma'lumotlar

# Farg'ona viloyatida kichik tadbirkorlik

Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMdagi ulushi, %da



2019- yil



2020- yil



2021- yil

2021- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMdagi ulushi **71,8** %ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **15,2** birlikni tashkil qildi.

2021- yilning yanvar-sentabrida **6,8** mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **34,0** foizga ko'p demakdir.

**2021- yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %da**

Savdo



Sanoat



Qurilish



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdoda **2960** ta, sanoatda **1688** ta, qurilishda **479** ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda **420** ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **295** ta tashkil etilgan.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari



**2021- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %da**

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 97,8



Sanoat 44,7



Qurilish 88,1



Investitsiya 65,8



Savdo 91,4



Xizmatlar 69,9



Eksport 129,1



Import 130,5



Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

**41 073**




Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

**6 827**

**2021- yilning yanvar-sentabrida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda**

**Yanvar-sentabr oyalarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, %da**



■ 2020- y. ■ 2021- y.

# Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar




## Hududlar bo'yicha yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda



## 2021- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, %da


2021- yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Farg'ona shahri – 19,9 %, Qo'qon shahri – 10,9 %, Marg'ilon shahri – 7,4 %, Oltiariq tumani – 5,4 %, Quva tumani – 5,4 %, Toshloq tumani – 5,3 %, Buvayda tumani – 5,1 % hissalariga to'g'ri keldi.






# Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda



Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda



Ma'lumot uchun: 2021– yilning yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:

**Savdoda**

**2 690ta**

**Sanoatda**

**1 688 ta**

**Qurilishda**

**479 ta**

**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar**

**420 ta**


# Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida




2021- yil yanvar-sentabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 15,2 birlikni tashkil etdi.



O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-sentabr holatiga ko'ra\*



2021- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Farg'ona shahrida 23,3 birlik, Quvasoy shahrida 20,4 birlik, Qo'qon shahrida 20,3 birlik, Marg'ilon shahrida 18,0 birlik, Dang'ara tumani 17,6 birlikni tashkil etgan.



# Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida

**Farg'ona viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda),  
2021- yil yanvar-sentabr holatiga ko'ra\***

**Eng yuqori ko'rsatkich**  
Farg'ona shahrida - 23,3 birlik.

**O'rtacha ko'rsatkich**  
Uchko'prik tumanida- 14,8 birlik.

**Past ko'rsatkich**  
Beshariq tumanida – 8,8 birlik.

**2021- yilning yanvar-sentabrida har 1000 aholiga to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari sonini eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda \***



\* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMdagi ulushi




2021- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 71,8 %ni tashkil qildi. (2020- yilning yanvar-sentabrida 70,2 %).

YaHM tarkibida kichik tadbirkorlik ulushining oshishi yirik korxonalar ulushining pasayishi bilan izohlanadi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti




2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 303,5 million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining 51,7 %ini tashkil etdi.



Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami eksportdagagi ulushi


**2021 yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagagi ulushi, %da**



2021- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Bog'dod tumanida – 100,0 %, Beshariq tumanida – 100,0 %, So'x tumanida 100,0 %, Furqat tumanida – 100,0 %, Yozyovon tumanida – 100,0 % va Marg'ilon shahrida – 98,5 %ni, eng past ko'rsatkich Toshloq tumanida – 11,0 %ni tashkil etdi.



## Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi




Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami importdagi ulushi

2021- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi So'x tumanida – 100,0 %, Yozyovon tumanida – 100,0 %, Furqat tumanida – 100,0 %, Marg'ilon shahruda – 99,6 %, Buvayda tumanida – 99,0 % va– Dang'ara tumanida 99,0 %. Eng past ko'rsatkich Qo'shtepa tumanida – 12,4 %ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **574,6** million AQSh dollarini yoki umumiy importning **75,0** %ini tashkil etdi.




**2021 yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, %da**



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati




2021- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm



2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **8 625,8** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Uchko'priq tumani (1463,9 mlrd. so'm), Qo'qon shahri (1180,9 mlrd. so'm), Farg'ona shahri (967,6 mlrd. so'm), Marg'ilon shahri (870,5 mlrd. so'm) va Bag'dod tumani (547,6 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keladi. So'x tumanida (74,8 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.


# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati



Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi

2021- yil yanvar-sentabr oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiylajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 44,7 %ni tashkil etdi.


## 2021- yil yanvar-sentabr holatiga hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, %da



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Beshariq tumani (100,0%), So'x tumani (100,0 %), Furqat tumani (100,0 %), Yozyovon tumani (100,0 %), Marg'ilon shahri (100,0 %), Buvayda tumani (90,1%), Dang'ara tumani (87,3%), Uchko'prik tumani (84,2%), Bog'dod tumani (81,1%) va Rishton tumanlari (64,1%) tashkil etdi. Toshloq tumanida (13,0%) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.



## Kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi faoliyati




Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi ulushi


2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **12 140,8** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **91,4** %ini tashkil etib. 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **110,3** %ni tashkil qildi.

### 2021- yilning yanvar- sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Qo'qon shahri 3363,2 mlrd. so'm), Marg'ilon shahri (2740,6 mlrd. so'm), Farg'ona shahri (2537,8 mlrd. so'm), Uchko'prik tumani (460,9 mlrd. so'm), Rishton tumani (313,5 mlrd. so'm) va Farg'nada tumanlari (303,1 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keldi.



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi faoliyati




Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi




2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **4358,8** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **88,1** %ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **109,7** %ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Farg'ona shahri (916,6 mlrd. so'm), Marg'ilon shahri (545,9 mlrd. so'm), Bog'dod tumani (339,8 mlrd. so'm), Qo'qon shahri (316,2 mlrd. so'm), Dang'ara (243,4 mlrd. so'm) Toshloq tumani (210,7 mlrd. so'm), Quva tumani (180,3 mlrd. so'm) hamda (176,9 mlrd. so'm) Quvasoy shaharlarida qayd etildi.

## 2021- yilning yanvar- sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati



## Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi faoliyati




Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami xizmatlardagi ulushi

2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **8 914,9 mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining 69,9 %ini tashkil qildi va o'sish sur'ati 2020- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan **118,4 %ni tashkil qildi.****


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Farg'ona shahri (2864,4 mlrd. so'm), Qo'qon shahri (1637,3 mlrd. so'm), Marg'ilon (651,7 mlrd. so'm), Oltiariq tumani (386,1 mlrd. so'm), Uchko'prik tumani (291,3 mlrd. so'm), Farg'ona tumani (273,8 mlrd. so'm) va (260,1 mlrd. so'm) Rishton tumani hissasiga to'g'ri keldi.

### 2021- yilning yanvar- sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati




## 2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarininig xizmatlar sohasidagi ko'rsatkichlari


2021- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da:




Yuk tashishda



Yuk aylanmasida



Yo'lovchi tashishda



Yo'lovchi aylanmasida

2021- yil yanvar-sentabr oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 92,9 %ni tashkil etdi. 2020- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 104,0 %ni tashkil qildi.

2021- yil yanvar-sentabr oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 93,4 %ni tashkil etgan bo'lib, 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 104,6 %ni tashkil qildi.

2021- yil yanvar-sentabr oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 95,9 %ni tashkil etib, 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 103,1 %ni tashkil qildi.

2021- yil yanvar-sentabr oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 97,2 %ni tashkil etib, 2020- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 102,9 %ni tashkil qildi.




# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2021-yil III chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxona va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnoma 1645 ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 704 (42,8 %) tasi iqtisodiy vaziyatni joriy davrda qulay deb baholadi. 871 (52,9 %) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 69 (4,2%) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 3,9 % (64 ta), sanoatda – 23,5 % (387 ta), qurilishda – 8,6 % (141 ta), savdoda – 38,8 % (638 ta), xizmatlar sohasida – 25,2 % (414 ta) ni tashkil etdi.

**2021- yil III chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, %da**




- Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
- Sanoat
- Qurilish






# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2021- yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvida ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalar Farg'ona shahri (268 ta), Qo'qon shahri (191 ta), Marg'ilon shahri (149 ta), Oltiqriq tumani (93 ta), Uchko'prik tumani (80 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.


2021- yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, %da




# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari



## 2021- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, %da



## 2021- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagisi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, %da



Kichik korxona va mikrofirmalarning 2021- yilning III choragida, o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida 48,5 %ni, savdoda 45,9 %ni, sanoatda 37,0 %ni va qurilishda 34,7 %ni tashkil etdi.

Shuningdek iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 65,6 %ni, qurilishda 58,2 %ni, sanoatda 57,3 %ni, savdoda 50,6 %ni tashkil etdi.

2021- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning **yaqin 3 oydagisi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida 56,1 %ni, savdoda 48,4 %ni, sanoatda 42,4 %ni tashkil etdi.

Shuningdek **yaqin 3 oydagisi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 62,5 % ni, qurilishda 54,6%ni, sanoatda 52,4%ni savdoda 48,4 %ni, tashkil etdi.

